Dizartriyali bolalarning ovoz va nafasni rivojlanganlik holatini eksperimental o'rganish natijalari	1854
Abidova Nilufar Zakirovna, Shaxodjayeva Nilufar Raimjonovna	
Kasbiy etika va deontologiya: bo'lajak shifokorlar tarbiyasida innovatsion yondashuvlar	1857
Ahmedova Nigora Dadahonovna	
Tabiiy fanlar va matematika integratsiyasi orqali ekologik mas'uliyatni shakllantirish metodikasi	1862
Ashurova Gulhayo Nurali qizi, Eshboyeva Surayyo Qaxramon qizi	
Inklyuziv ta'lim tizimida imkoniyat cheklangan o'quvchilarni o'qitishga lingvopedagogik yondashuv	1865
Asranbayeva Munojot	
Chet tili mashg'ulotlarida yozma nutqni o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari	1868
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich	



Ekologik muhit asosida bolalar psixo-fiziologik rivojlanish jarayonini takomillashtirish.....	1872
<i>Axmedjonova Nozigul Zaripovna</i>	
O'smir yoshlarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish	1876
<i>Baxrillayeva Moxichexra Raxmatillayevna</i>	
Xalqaro baholash dasturi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari va shart-sharoitlari.....	1880
<i>Bayzakova Malika</i>	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	1884
<i>Berdiyeva Muborak Baxtiyorovna, Saydinova Barno</i>	
O'yin texnologiyalari asosida matematik bilimlarni takomillashtirish va uning ahamiyati.....	1889
<i>Botirova M. B.</i>	
Talabalar orasida ko'p uchraydigan akademik muvaffaqiyatdan qo'rqish va uning yechimlari.....	1892
<i>Celal Algan</i>	
Kasbiy faoliyat xavfsizligiga tayyorgarlik izlanishlari.....	1896
<i>D. G'. Akramova</i>	
Matematika darslarida o'yinli texnologiyalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish	1899
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Ibn Sino asarlarida emotsiyalarning shaxs faoliyatiga ta'siri talqini	1905
<i>Dostanova Kamola Alisher qizi</i>	
Dual ta'lim jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar	1909
<i>Egamberdiyeva Yulduz Urinboevna</i>	
The Sociolinguistic Effectiveness of Using Authentic Texts in the Training of Prospective English Language Teachers	1912
<i>Elyor A Pazilov</i>	
Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari	1916
<i>Ermatova Gullola Ziyod qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik-madaniy ko'nikmalarini shakllantirishda kognitiv texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....	1919
<i>Eshmo'minova Sitara Xayrullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv madaniyatini shakllantirishda tizimli-vaziyatli yondashuvning nazariy asoslari	1922
<i>Gapparova Zilola Neymat qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida kreativ tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	1926
<i>Hayitboevna Zarina Otanazarovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga arifmetik amallarni tushuntirishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish usullari.....	1930
<i>Hojimatova Jamila, Ahmedova Umidaxon Yodgorjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish	1933
<i>Inobatxon Toshpo'latova</i>	
4-sinf o'qish savodxonligi darsligidagi "Qarg'a va paxta" hikoyasi orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda savol va topshiriqlarning o'rni.....	1937
<i>Jo'lliboyeva Mahliyo Hamro qizi, Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i>	
Mantiqiy tafakkur tushunchasi mohiyati.....	1941
<i>Jo'rayev Shuhratbek Maxamadaliyevich</i>	
Developing Tolerance Skills in Future Teachers During their Professional Training.....	1945
<i>Joldasbaeva Arzigul Muratbaevna</i>	
O'quvchilarda aksiologik yondashuvlar asosida empatik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	1948
<i>Jumanov Erdavlet Sharifjon o'g'li</i>	
Yo'l harakati xavfsizligi va uni maktabgacha ta'limda o'ziga xos xususiyatlarining ilmiy-metodologik asoslari	1952
<i>Jumayev Yunus Rashidovich</i>	
Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya berish jarayonidagi innovatsion yondashuvlar.....	1959
<i>Sayfullayev G'ulom Maxmudovich, Jurayeva Iroda Botirovna</i>	
An'anaviy laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish metodikasi	1964
<i>Karimov Ilhom Normamatovich</i>	
Globalashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish	1969
<i>Karimov Ravshanbek Rizomatovich</i>	
Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning sensor etalonlarini shakllantirishning ahamiyati.....	1973
<i>Kayumova Dilnoza Patxulla qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>Fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning epistemik faolligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi..... 1978 Madumarov Shodonbek Az'amjonovich</p> <p>Chet tilini o'qitishda dars rejalashtirish modellarining qiyosiy tahlili..... 1982 Mahkamova Dilshoda Shuhrat qizi</p> <p>Yoshlar o'rtasida gemblinning psixologik omillari va oqibatlari 1986 Melibayeva Ro'zaxon Nasirovna</p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirishda ertakterapiyaning ahamiyati..... 1990 Murodova Farangis G'anisherovna</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ nutqlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari 1994 Muxtorova Moxiraxon Ma'rufjon qizi</p> <p>Bo'lajak tarix o'qituvchilarini muzey pedagogikasi vositasi orqali tarixiy tafakkurini rivojlantirishning modeli 1997 Niyozov Javlonbek Jaxongir o'g'li</p> <p>Ingliz tilini o'rgatishda interrogativ vositalarning "MYTBT" moduli orqali ifodalanishi 2003 Normamatova Dilfuza Turdikulovna</p> <p>Biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etishning amaldagi holati 2008 Quldosheva Dilso'z Sunnatovna</p> <p>Maktabgacha 6–7 yosh bolalarda jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish..... 2011 Romanova Lola Karimbayevna</p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish..... 2014 Rustamova Gulmira Yoryigit qizi</p> <p>Ikkinchi tilni o'rganishda "Chaynovord" metodini qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari 2018 Sadinov Oybek Ziyot o'g'li</p> <p>Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish 2021 Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi</p> <p>Ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha topshiriqlari asosida ESP kurslarini amaliyotga yo'naltirish va talabalarning kasbiy ingliz tili kompetensiyalarini shakllantirish 2024 Shermuxevedova Dilnozaxon Raximiddjanovna</p> <p>Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi 2028 Shirinov Feruzjon Shuxratovich</p> <p>Og'ir atletikachilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida portlovchi kuchni rivojlantirish samaradorligi 2031 Tojimatov Oybekjon Dilmurodjon o'g'li</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotida STEAM xalqaro dasturini qo'llash metodikasi 2034 Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shoimov Anvar Mamarizayevich</p> <p>Interfaol metodlardan foydalanib matematika darslari samaradorligini oshirish 2039 Toshboyeva Saidaxon Rahmonberdiyevna, Nishonova Shahnozaxon Ro'zali qizi</p> <p>Maktabda fizika darslarida ekologik mazmundagi masalalardan foydalanish 2043 Tursunov Alisher Isoqovich, Erniyazova Shaxnoza Xurram qizi</p> <p>Taniqli kimyogar olimlarning ijodiy faoliyatini o'rgatish metodikasi 2046 Ubaydullayeva Navruza Ne'matovna</p> <p>Muhandislik kompetensiyalariga ega zamonaviy texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash 2050 Umarov Abdurasul Abduraximovich</p> <p>Talabalarda mediasavodxonlik fani asosida konseptual tahlil kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi..... 2058 Umarov Xusanboy Rustamovich</p> <p>Pedagogical-Psychological Features of Forming Research Competences..... 2062 Usmanova Nargiza Kudiratullayevna</p> <p>Qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatining ijtimoiy salbiy oqibatlari (yuridik va ijtimoiy-falsafiy tahlil) 2065 Xaidarov Rahmatullo Ergashevich, Amirxo'jayev Shukurjon Qurbanovich</p> <p>Talabalar sog'lig'iga ta'sir qiluvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar va ularni boshqarish tizimlari 2069 Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o'g'li</p> <p>Tez tibbiy yordam fanida stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning integrativ-metodik modeli ... 2073 Xasanov Kamoliddin Ulug'bek o'g'li</p> <p>Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari 2080 Xayrullayeva Zebiniso Toxirovna</p>
-------------------------------------	--



Informatsion-analitik kompetentlik iborasining pedagogika va falsafa fanlari misolida konseptual tadqiqi..	2085
Xolmatova Elnura Sherali qizi	
Emotsional intellekt rivojlanishida ijtimoiy muhitning psixologik ahamiyati	2088
Xudoyqulova Shoira Husanovna	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars samaradorligini oshirish metodikasi	2091
Xurramova Mehriniso Shamsiddin qizi	
The Adaptation Characteristics of the Movement Analyzer are Influenced by Physical Exercise	2094
Yoldasheva Roila Jumaevna, Fayziyeva Kibriyo Tuvlanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda faol fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish	2098
Yoldasheva Dilshoda To'lqinovna	
Geometrik isbotlashlarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari	2102
Yunusova Dilfuza Ismailovna, Toxirova Malika Muzaffar qizi	
ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) dasturlarida vazifaga yo'naltirilgan biznes kommunikatsiyasi orqali oliy ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish	2106
Yunusova Feruzaxon Xodjiakbarovna	
Genderga oid qarashlarning pedagogik bilimlar strukturasiidagi ahamiyati	2109
Yunusova Xolidaxon To'lqinjon qizi	
Integrativ yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali didaktik mexanizmlari	2113
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Ta'lim klasterlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish	2116
Badalova Maqsuda Umarovna	
Malakali kurashchilarda gavda-bel va qo'l-panja mushaklarining absolyut maksimal kuchini bir o'my davomida o'sish sur'ati	2119
Mirzanov Sherzod Sirliboyevich	
Технологии формирования коммуникативных навыков у детей раннего возраста	2123
Назарова Эльвира Наримановна	
Роль акмеологического подхода в оценке качества профессиональной подготовки будущих учителей	2127
Шафига Тахирова	
Этимологические справки к словарным словам школьных учебников по русскому языку по традиционной системе обучения	2131
Эшанкулов Хамракул Маматкулович	



BOLALAR ADABIYOTI TA'LIMIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH MASALASIDA TUSHUNCHALAR TAHLILI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Abdullayeva Moxidilxon Dilshodbek qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktranti

Annotatsiya: Maqolada bolalar adabiyotini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammosi sifatida ko'rib chiqiladi. Kichik tadqiqotdan ko'zlangan maqsad 5–6-sinf o'quvchilarida adabiy matnni tushunish, tahlil qilish va idrok etish jarayonlarini multimedia texnologiyalari orqali samarali tashkil etishdagi pedagogik muammolarni aniqlashdir. Mavzuning ahamiyati hozirgi ta'lim muhiti vizuallik, audio-tasviriy resurslar va interaktivlik orqali bola ongida barqaror bilim hosil qilishni talab qilishida ko'rinadi. Muallif o'z yondashuvida ta'limda niman, qanday o'qitish birlamchi ekaniga urg'u beradi. Maqoladagi ilmiy yangilik sifatida bolalar adabiyoti namunalarini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish ta'limiy masala sifatida dalillangani va u orqali metodik jarayonning samaradorligi eksperimental tarzda asoslanganini keltirish mumkin. Bolalar adabiyotini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish masalasi ta'limiy muammo sifatida tushunchalar tahlilida, texnik bazaning taqchilligida, ustozlarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ishlashdagi layoqati yetishmasligida ko'rinishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: multimedia, bolalar adabiyoti, multimedia galereyalari, videotasvir, tovush effektlari, animatsiya, pedagogik muammo.

Abstract: The article examines the use of multimedia tools in teaching children's literature as a pressing issue of modern pedagogy. The aim of this small-scale study is to identify pedagogical challenges in effectively organizing the processes of comprehension, analysis and perception of literary texts by 5–6th-grade students through multimedia technologies. The relevance of the topic lies in the demand of the current educational environment for forming stable knowledge in children through visuality, audiovisual resources and interactivity. The author emphasizes that determining "what to teach and how to teach" is fundamental in the educational process. The scientific novelty of the article lies in substantiating the use of multimedia tools in teaching samples of children's literature as a pedagogical task and experimentally proving the effectiveness of the methodological process. The issue of using multimedia in teaching children's literature is discussed through the analysis of pedagogical concepts, the lack of technical resources and teachers' insufficient competence in working with modern educational technologies.

Key words: multimedia, children's literature, multimedia galleries, video sequence, sound effects, animation, pedagogical problem.

Аннотация: В статье рассматривается использование мультимедийных средств при обучении детской литературе как актуальная проблема современной педагогики. Цель небольшого исследования заключается в выявлении педагогических трудностей, связанных с эффективной организацией процессов понимания, анализа и восприятия художественного текста учащимися 5–6-х классов с применением мультимедийных технологий. Актуальность темы проявляется в том, что современная образовательная среда требует формирования устойчивых знаний у детей посредством визуальности, аудио-визуальных ресурсов и интерактивности. Автор в своём подходе подчёркивает первичность вопросов "чему и как обучать" в образовательном процессе. Научная новизна статьи заключается в том, что использование мультимедийных средств при изучении образцов детской литературы обосновано как педагогическая задача, а также экспериментально подтверждена эффективность методического процесса. Проблема использования мультимедийных средств в обучении детской литературе раскрывается через анализ педагогических понятий, недостаточность технической базы и нехватку у педагогов навыков работы с современными образовательными технологиями.

Ключевые слова: мультимедиа, детская литература, мультимедийные галереи, видеоряд, звуковые эффекты, анимация, педагогическая проблема.



KIRISH

Kirishda mavzuning dolzarbligi adabiyotning alifbosi sanalgan bolalar adabiyoti ta'limiga bugungi kunda metodik ehtiyoj darajasiga ko'tarilayozgan multimedia vositalarini jalb qilishda uchraydigan pedagogik muammolarni ochib berishdan iborat bo'lib, uning obyekti bolalar adabiyoti namunalari, predmeti esa multimedia vositalarining barcha turlarini qamrab oladi. Ishning maqsadi bolalar adabiyoti namunalari o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish metodikasidagi pedagogik muammolarni ko'rsatish va ularga munosib yechimlar tavsiya qilishdan iborat. Vazifalar bolalar ongiga multimedia vositalarining ta'sirini inobatga olgan holda muammolarni bartaraf etib, ta'lim samaradorligiga erishishni o'z ichiga oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalar adabiyotini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va bolalar adabiyoti yordamida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish masalalari M. Elboyeva va S. Inomjonova tomonidan tadqiq qilingan. Ona tili ta'limida multimedia vositalaridan foydalanishni takomillashtirish mavzusini S. Kuldasheva o'z tadqiqotida o'rgangan. Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim tizimida multimedia vositalaridan foydalanish masalalari N. Begmatova va U. Masharipova ishlarida tadqiq qilingan. O'rta umumta'lim tizimida ona tilini o'zlashtirishda kompyuter texnologiyalari, zamonaviy pedagogik vositalar hamda dasturlarni samarali qo'llash, mediamadaniyatni o'quvchilarda shakllantirish muammolari A. Hayitov, Sh. Yusupova, N. Rustamova tomonidan qator tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada qiyosiy taqqoslash usulidan foydalanilgan bo'lib, ushbu usul bolalar adabiyoti va multimedia vositalari tushunchalariga berilgan ta'riflarni o'rganish va tahlil qilishda qo'llangan. Qiyosiy taqqoslash usuli ushbu ikki tushunchaning asl mohiyatini ochib berishda va amalda qo'llanayotgan ayrim xatoliklarni yoritishda xizmat qilgan. Bolalar adabiyotini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish masalasi pedagogik muammo sifatida, avvalo bolalar adabiyoti tushunchasiga berilgan ta'rifning noaniqligi, ushbu tushunchaga oid xususiyatlarning boshqa istilohlar bilan ma'lum chegaralar orqali ajratilmaganida ko'rinadi. Buni o'qitish mazmunining noaniqligi bilan izohlash mumkin. Ta'lim jarayonida avvalo o'quvchilarga nimani o'qitishni belgilab olish, so'ng uni qanday o'qitishni o'rganish muhimdir. Bolalar adabiyotini o'qitishdagi ta'limiy muammo aynan uning mohiyatiga borib taqaladi. Shu o'rinda bolalar adabiyoti tushunchasiga berilgan ta'riflarni keltirish va ularni tahlilga tortish asosli bo'ladi. Xususan, M. Jumaboyev "Bolalar adabiyoti va folklor" kitobida shunday yozadi: "Bolalar adabiyoti so'z san'ati va tarbiya vositasidir. Kichkintoylar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, kitobxonlar qalbidagi o'y-fikrlar uyg'otadigan, yorqin obrazlarga boy, yuksak g'oyalarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantiradigan bo'lishi zarur.

Eng muhimi, mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda ifodalaniishi kerak".^[1] Ammo ushbu xususiyatlarni kattalar adabiyoti namunalari ham taalluqli deb hisoblash mumkin. Chunki nafaqat bolalar adabiyoti, balki umumiy tushuncha sifatida adabiyot ham so'z san'ati va tarbiya vositasidir. Ta'rifda keltirilgan bolalar adabiyotining "ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos" bo'lishi haqida ko'p aytiladi, ammo bolalarning yosh xususiyatlari, o'zgarishlari, saviyalariga qanday bo'lishi juda ko'p hollarda izohlanmaydi. Kichkintoylar adabiyotining ilhomlantiruvchi vazifasi chindan ham munosib detal bo'la olgan. Yakunda muhim xususiyat sifatida keltirilgan mavzularning tushunarli, sodda va qiziqarli bo'lishi maqbuldir, ammo mavzularning soddaligini shaklga ko'chirish, mohiyat, qadriyat va mavzu masalalarini murakkab va ulug'vor holatda saqlab qolish bolalar adabiyotining qimmatini oshiradi deb hisoblaymiz. Olimning boshqa bir ta'rifiga ko'ra, "bolalar adabiyoti yoshlarni iymon-e'tiqodli kishilar sifatida va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda mustaqil mamlakatimizning qudratli qurolidir".^[1:186] Publitsistik ruhga yaqin jumalardan iborat, ilmiy dalillardan biroz uzoq bo'lgan ushbu ta'rifda bolalar adabiyoti yoshlarni tarbiyalashda Vatanning quroli ekani aytilmoqda. Bu ta'rifda aynan bolalar adabiyoti namunalari xos, uni boshqalardan aniq chegaralar bilan ajratib turadigan xususiyat uchramaydi. Ta'riflar orasida nisbatan mukammal deb bilganimiz: "...o'zbek bolalar adabiyoti dastavval hodisa shaklida, so'ngra bolalar va o'smirlarga mo'ljallab, nihoyat, ularga ixtisoslashgan adabiy hodisani ifodalagan holda dunyoga keldi. Buning tarixiy-tadrijiy taraqqiyot xususiyatlari, badiiy-uslubiy tamoyillari, ilmiy-nazariy umumlashmasi esa 'Bolalar adabiyoti' deb nomlangan mustaqil fan tarixida o'z ifodasini topib kelmoqda".^[2:6] Demak, bolalar adabiyoti avvalo hodisa edi, so'ng umumiylikdan xususiylikka ko'chdi.

Hodisa sifatida bolalar adabiyoti folklor o'laroq qo'shiqlar, alla va laparlarda ko'rinsa, keyin bolalarga atalgan asarlar maxsus yaratiladi va xususiylik kasb etadi. Ana shu tadrijiylikda unga mustaqil fan maqomi berildi. B. Jamilova o'zining "O'zbek bolalar adabiyoti" qo'llanmasida bolalar adabiyoti haqida zarur, ilmiy asoslangan dalillarni keltiradi. R. Barakayevga ko'ra, bolalar adabiyotining "bosh vazifasi farzandlarimizni ma'naviy-axloqiy kamolot ruhida tarbiyalashdir. Demak, uning asosiy o'ziga xosliklaridan biri nafaqat adabiy-estetik, balki ma'rifiy

ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi".^[3:28] Bolalar adabiyotiga tarbiya vositasi sifatida qarash ko'p uchraydi. Adabiyot ijtimoiylikning O. Sharafiddinov ta'biri bilan aytganda "oqsochi" bo'lmagandek, bolalar adabiyoti ham tamoman ma'rifiy tusga kirishi noo'rindir. Qolaversa, pandnoma ruhida yozilgan kattalarga mo'ljallangan asarlar ham topiladi. Ushbu fikrlar R. Barakayev ta'rifiga ters emas, balki kichikintoylar uchun yozilgan asarlar tamoman ma'rifiy ruhda bo'lmasligi uchun kichik eslatma xolos. Zero, olim ta'kidlaganidek, u adabiy-estetik hodisa hamdir. N. Ochilovga ko'ra, "bolalar va o'smirlarga bag'ishlangan asarlarga qo'yiladigan talab sujetning qiziqarliligi, hayotiyiligi va xilma-xil obrazlarga boyligini taqozo etadi, bunday asarlar bolalarga estetik zavq berishi bilan bir qatorda, ularning tabiat hodisalari va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni chuqur anglashga, hayotiy hodisalarni his etishga o'rgatadi".^[4:163] Yuqoridagi izohlarga qo'shimcha tarzda ushbu ta'rifda bolalar adabiyotining hayotiy muhit bilan bog'liqligi, tezkorlik, fantaziya va yumorga boyluk xususiyatlarini ko'rish mumkin. Xilma-xil obrazlar esa bolalarning diqqatini jamlashda va e'tiborini tortishda muhim sanaladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalar adabiyotini o'qitishni multimediashtirish jarayonlarini ta'limiy muammo darajasiga olib chiquvchi, uni pedagogik muammo sifatida yorituvchi ilmiy-metodik yondashuvlardan biri aynan bolalar adabiyoti tushunchasiga berilgan ta'riflarning aniq chegaralarga ega emasligida ko'rinadi. Tahliliy-pragmatik qarashlar shuni ko'rsatadiki, bolalar adabiyoti xususiyatlari ma'lum aniq adabiy-nazariy chegaralar bilan ko'rsatilmagan. Uning mazmun va shakl planidagi soddalik bolalar adabiyoti namunalaridagi sayozlikka yo'l ochmoqda. Qolaversa, asarlarni bolalar yoki kattalar adabiyoti namunasi sifatida ajratishda aynan qaysi unsurlarga ahamiyat qaratish borasidagi savollar ham ochiq qoladiki, bu bolalar adabiyotida nimani o'qitish masalasi ta'limiy muammo darajasiga chiqayotganini ko'rsatadi. Qolaversa, bolalar adabiyotini o'qitishda multimedia vositalarining ahamiyati masalasi zamonaviy ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi, metodikada yangi pedagogik texnologiyalarning kech joriy qilinishi, ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda bolalar adabiyoti namunalarining o'qitilishini tubdan yangicha yondashuvlar asosida tashkil qilishni taqozo etayotganida akslanmoqda. Masalaning dolzarb ta'limiy muammo sifatida keltirilishiga sabablardan biri mohiyatan faqat texnik vositalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilishda emas, balki didaktik-motivatsion muhitni yaratish, axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish, eng asosiysi, badiiy-estetik idrokni chuqurlashtirish kabi nuqtalarda ham namoyon bo'ladi.

An'anaviy metodik yondashuvlar bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga to'liq javob bermasligi, adabiy matnlarni tushuntirishda biryozlama izoh berish usullarining ustunligi, interaktiv o'yinlar, animatsiyalar, audiokitoblar kabi vositalardan foydalanmaslik sabab o'quvchilarning adabiyotga qiziqishi sustligi kabi omillar multimedia vositalarining joriy qilinishini kechiktiradi. Ma'lum bo'lganidek, muhit o'z-o'zidan emas, ilmiy asoslangan metodik konsepsiyaga asoslangan holda tashkil qilinishi lozim. Bolalar adabiyoti namunalarini multimedia vositalari yordamida o'qitish masalasi nafaqat pedagogik, balki metodik va texnologik yechimlarni birlashtiruvchi murakkab didaktik muammo sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Tushunchalar tahlilida nafaqat bolalar adabiyoti, balki multimedia istilohi ham ayrim o'rinlarda noto'g'ri anglanmoqda. Bu ham ta'limiy muammo sifatida diqqat qaratishga ehtiyoj tug'diradi. Bu so'zga turli adabiyotlarda turlicha ta'rif berilgan bo'lsa-da, ular mohiyatan bir tushunchani anglatadi: "Multimedia Ingl: multimedia Рус: мультимедиа

1. Inglizchadan olingan: multi – ko'p va media – tashuvchi, muhit. Axborotni turli shakldagi tashuvchilar bo'lmish tovush, tasvir va matnlar birikmasi.
2. Vizual va audio effektlarning o'zaro muloqotli dasturiy ta'minot boshqaruvida birgalikda namoyon bo'lishi. Odatda bu matn, tovush va grafikaning, so'nggi vaqtlarda esa animatsiya va videoning ham birlashishini bildiradi. Multimedia veb-bog'lamalari va ixcham disklarning tavsifli, agar eng muhimi bo'lmasa, xususiyatli giperishoratlaridir.
3. Videotasvir va tovush bilan ishlash uchun apparat va dasturiy vositalar majmui. Multimediyaga ega kompyuterlar odatda kuchli videotizimga, videomagnitofon va videokameralarni qo'shish imkoniyatiga ega, tasvirni ushlash va uni raqamli shaklda qattiq magnit diskka yozishning apparat vositalari, tasvirni ustiga qo'shish vositalariga ega. Shu bilan bir qatorda, ular tovushni aks ettirish va uning sintezi uchun tovush platasiga, axborotni ixcham diskdan o'qish uchun uzatishga akustik tizimni qo'shish imkoniyatlariga egadir.
4. Xohlagan turdagi ma'lumotlarni majmuaviy tarzda taqdim etish texnologiyasi. Multimedia birgalikda tasvir-larga ishlov berish, nutqni qayta ishlash va hujjatlariga ishlov berishni ta'minlaydi. Bu ekranga tasvirni matn va tovush bilan birgalikda chiqarish imkonini beradi.

Multimedyaning muhim yo'nalishlaridan biri o'rgatuvchi tizimlarni yaratishdir."^[5:163] Multimedia vositalari aslida zamonaviy axborot texnologiyalari ichidagi illyustratsiyaning tarkibiy qismi sanaladi. Shu sababdan ham ularning bolalar ongida muhrlanishining ta'siri ijobiy bo'ladi. Bolalar yozish va o'qishni o'rganmasdan avval



ham axborotlarni tasvirlar orqali qabul qilgan. Shu jihatdan, illyustratsiyalarni “umumjahon tili” deb e’tirof etish mumkin. Ulardagi ayni mana shu xususiyat bolalarni obrazli fikrlashga o’rgatadi. Ularning tasavvur olamini kengaytiradi. Ayrim o’rinlarda multimedia vositalari deganda birgina audiomaterialning o’zidan foydalanishni ham ko’zda tutadilar, ammo bu noto’g’ri. Multimedia ko’p tashuvchi va u o’zida birdan ortiq axborot tashuvchilarni, masalan audio, matn, grafikni birlashtirsa, multimedia bo’la oladi. Mavzudagi pedagogik muammolardan biri ham ayni shunda. Bu borada pedagoglarning multimedia haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, ularga aslida bu nimani ifodalashini tushuntirish muhim hisoblanadi.

1. **Multimedia (мультимедиа, multimedia)** – ovoz va video yozish imkoniyatini beruvchi kompyuter sistemalar. Informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio-video matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o’quv materiallarini talabalarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko’rinishi.
2. **Multimedia vositalari (средства мультимедиа, means of multimedia)** – tasvirlar, videofilmlar, animatsiyali grafik obrazlar, matn, nutqli va ovoqli tasvirli matnlarni aks ettiruvchi vositalar sistemasi.
3. **Multimedia galereyalari (мультимедийная галерея, gallery of multimedia)** – tovush jo’rligidagi harakatlanuvchi suratlar to’plami.
4. **Animatsion roliklar.** Animatsiya – multimediali texnologiya; tasvirning harakatlanayotganini ifodalash uchun tasvirlarning ketma-ket namoyishi.

Tasvir harakatini tasvirlash effekti sekundiga 16 ta kadrda ortiq videokadrlarning almashinishidan hosil bo’ladi.”^[6:186] Yuqoridagi ta’riflardan ham ko’rinib turibdiki, multimedia bitta ko’rgazmali qurol emas, ko’plab o’qituvchilar kompyuterdan, yakka suratdan yoki bir audiodan foydalanarkan, multimedia vositasi sifatida ularni keltirishi xato bo’ladi. O’zbek tilining izohli lug’atiga ko’ra, “multimedia bu – (ingl. multimedia – multi + lot. media, medium – o’rta, markaz, vositalar, tadbirlar) axborot-informatsiya uzatishning xilma-xil vositalari (matn, ovoz, jonlantirilgan va grafik tasvirlar va sh.k.)ni qamrab oluvchi texnologiyadan foydalanuvchi dasturlar va kompyuter vositalari”.^[7:637] Bundan tashqari, multimedia tushunchasiga yuqoridagi berilgan barcha ta’riflar bir nuqtada birlashadi. U ham bo’lsa, unga xos xususiyatlar va u bajaradigan vazifalar dars samaradorligini oshirishda katta imkoniyatlar yaratib beradi. Jonli darsning asosiy jihoziga aylanib ulgurgan multimediali vositalar bugungi kunda masofaviy ta’limning ham o’zagi ekanligi hech kimga sir emas. Bundan tashqari, adabiyotda virtual laboratoriyani rejalashtirishning ilk bosqichi – maxsus xona yaratishda uning multimedia vositalari bilan ta’minlanganligi ham muhim sanaladi. Maqolada tahlilga tortilgan mavzudan ko’rinib turibdiki, bolalar adabiyoti namunalarni o’qitishda multimedia vositalaridan foydalanishda uchraydigan asosiy pedagogik muammo tushunchalarning to’g’ri va aniq mazmunini belgilay olmaslikdan iborat. Ushbu ikki tushuncha darsda nimani, qanday o’qitishni belgilab berar ekan, dastavval ularning chegaralarini bilish va shunga muvofiq darslarni tashkil etish samaradorlikni oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktablarda multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlari oshishi uchun o’qituvchilarning metodik va texnik savodxonligini o’stirish maqsadida kurslar tashkil qilish lozim, bu jarayonni oliy ta’limda bakalavr bosqichida kadrlar tayyorlashdan boshlash maqsadga muvofiq; multimediali materiallarni tayyorlashda ijodkor ushbu vositalar mazmun emas, vosita ekanini unutmashligi muhim; bolalarga moslangan adabiy ta’limning multimedialashgan shakli media vositalarida va OAVlarda keng targ’ib etilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2006.
2. Jamilova B. O’zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020, 7-bet.
3. Barakayev R. Istiqlol davri o’zbek bolalar she’riyatining ba’zi o’ziga xosliklari. Uluslararası Başarı Bilimler ve Sanat dergisi, 2021, 2 (1), 28-bet.
4. Ochilov N. Boshlang’ich ta’limda bolalar adabiyoti. Toshkent: “LESSON PRESS” nashriyoti, 2021, 12-bet.
5. Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли луғати. – Тошкент, 2010. 163-бет.
6. Muhammedova S., Abdullayeva M., Yuldasheva Sh., Eshmatova Y. O’zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari. Toshkent: Excellent Pliography, 2020, 186-bet.
7. O’zbek tilining izohli lug’ati. Toshkent: O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 637-bet

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.